



POLAND



POLAND

**OMMAVIY TARTIBSIZLIK JINOYATINI KVALIFIKATSIYA QILISH VA
UNI GURUH BEZORILIGIDAN FARQLASHDAGI MUAMMOLAR****Umurzoqov Mexroj Umar o'g'li**

E-mail: umirzakovm7@gmail.com

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti "Xalqaro huquq" fakulteti
magistranti**Yusupdjanov Odil Abdugafurovich**

Ilmiy rahbar: Ph.D.

Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, Jahin
iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti<https://doi.org/10.5281/zenodo.13762855>**Annotatsiya:**

Ushbu maqolada ommaviy tartibsizliklar va guruh bezoriligi jinoyatlarining jinoiy-huquqiy tabiati, ularning o'zaro farqlari va o'xshashliklari tahlil qilinadi. Maqola, shuningdek, ommaviy tartibsizliklar va bezorilik uchun jinoiy javobgarliklarning jamoat tartibini saqlashga qaratilganligini ta'kidlaydi. Ommaviy tartibsizliklar asosan stixiyali sodir etilgan jinoyatlar bo'lib, ularning tashkilotchilari boshqa shaxslar bo'lishi mumkin, bezorilik esa bir guruh tomonidan sodir etilgan holda barcha ishtirokchilar bajaruvchi sifatida ishtirok etadi. Jinoyatlarning obyektlariga qarab farqlanishi ham ularning o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi: ommaviy tartibsizliklar jamoat xavfsizligiga zarar etkazsa, guruh bezoriligi jamoat tartibini buzadi.

Maqolada ommaviy tartibsizliklar va bezorilik jinoyatlarini kvalifikatsiya qilishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar va muammolar muhokama qilinadi, shuningdek, ushbu jinoyatlarni farqlashning ahamiyati yoritib berilgan. O'zbekiston va Rossiya amaliyotida ushbu jinoyatlar bo'yicha sodir etilgan huquqbuzarliklar va sud qarorlari tahlil qilinadi. Maqola jinoyatlarni farqlashda obyektiv tomonlar, jinoyat ishtirokchilarining roli va qurol ishlatish kabi omillarning muhimligi haqida batafsil to'xtaladi. Xulosada ommaviy tartibsizliklar va guruh bezoriligi jinoyatlari bo'yicha amaldagi qonunchilikdagi kamchiliklar, jinoyatlarni aniq kvalifikatsiya qilishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar hamda bu jinoyatlar jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashda qanday rol o'ynashi muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: Ommaviy tartibsizliklar, Guruh bezoriligi, Jinoyat kvalifikatsiyasi, Jinoiy-huquqiy tahlil, Jamoat tartibi, Jamoat xavfsizligi, Jinoyatning obyektiv tomoni, Jinoyat ishtirokchilari, Qonunchilik, O'zbekiston va Rossiya amaliyoti.

Ommaviy tusdagi bunday jinoyatlar ularning jinoiy-huquqiy tabiati, yo'nalishi, ishtirokchilarning tajovuzkorligi hamda sifat ko'rsatkichi va oqibatlarini hisobga



olgan holda aytish mumkinki, mazkur turdagi jinoyatlarni kvallifikatsiya qilish murakkab hisoblanadi. Shuningdek, fuqarolar o'zlarining iqtisodiy, siyosiy, fuqarolik huquqlarini talab qilgan holda turli xil mitinglar va harakatlar o'tkazish huquqlari mavjud bo'lib, tahlil etilayotgan moddalar fuqarolarning mazkur huquqlariga tajovuz qilish xavfi mavjud. Bunda muhim jihat shundaki, jinoyat qonunchiligi jazolash va cheklashga emas, balki qayta tarbiyalab, jamiyatga xavfsiz shaxsni qaytarish bo'lishi lozim.

Hozirgi davrda bizning davlatimiz va jamiyatimiz yirik iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar bosqichida bo'lib, bu yerda ko'plab guruh va to'dalarning, turli davlatlarning manfaatlari to'qnash kelgan, shu sababli hokimiyat va fuqarolar harakatida yakdillik va o'zaro ishonch bo'lmog'i lozim. Bunday tahlikali vaziyatlarda jamoat tartibi va xavfsizligiga tajovuz qiluvchi turli-xil qarama-qarshiliklar va nizolardan holi emas.

Davlat bunday ziddiyatlarni huquq normalari, jumladan, jinoyat huquqi normalari yordamida hal qilishga harakat qilmoqda. Shu sababli ham ommaviy tartibsizliklar va bezorilik uchun javobgarliklar manashu maqsadlarni ham ko'zlab joriy etilgan deb hisoblaymiz.

Biroq shuni ta'kidlab o'tish kerakki, qonunlar odamlar tomonidan yozilganligi, odamlar esa doim ham mukammal bo'la olmasligi tufayli turli xil kamchiliklar uchrab turadi. Bu esa jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda xatolarga, pirovardida sud qarorlarining noto'g'ri chiqarilishiga olib keladi. O'zbekiston amaliyotida tahlil qilinayotgan normalar bilan bog'liq qonun buzilishlariga amaliy misollar topa olmadik, biroq Rossiya amaliyotida shunday holat mavjud. Ya'ni Tergov organlari tomonidan bir guruh shaxslar ommaviy tartibsizliklarda ishtirok etganlikda ayblangan, biroq sudyalari ishtirokidagi Ulyanovsk viloyat sudi hukmi bilan bir qancha ayblanuvchilar oqlangan ba'zilar esa Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 213-moddasi 2-qismiga guruh bezoriligi sifatida qayta malakalangan. Rossiya Federatsiyasi Oliy sudining jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'ati 2005 yil 22 dekabrda kassatsiya ajrimida mazkur hukm o'zgarishsiz qoldirilgan.

Bundan tashqari, Jinoyat Kodeksi 244-moddasiga bir necha marotaba o'zgartirishlar kiritilganligidan ko'rish mumkinki, mazkur jinoyatlarni kvallifikatsiya qilishda bir qancha muammolar mavjud.

Biz yuqorida ommaviy tartibsizliklar va guruh bezoriligi jinoyatlarining huquqiy tabiatini yoritib o'tdik hamda ta'kidlab o'tish kerakki, bu jinoyatlarning belgilari tashqi o'xshashlikka ega. Ommaviy tartibsizliklar katta guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan bo'lsa, bezorilik ham qonunda belgilangan hollarda bir



necha shaxs tomonidan birgalikda sodir etiladi. Biroq ommaviy tartibsizliklar jinoyati stixiyali tarzda omma tomonidan sodir etiladi, lekin ularning asl bajaruvchilari va tashkilotchilari boshqa shaxslar bo'ladi. Shu yerda bezorilikning farqli jihati ko'rinadi, ya'ni mazkur jinoyatda tashkilotchidan tashqari barcha ishtirokchilar bajaruvchi hisoblanadi.

Shuningdek, mazkur jinoyatlar qasd qaratilgan obyektlariga qarab ham farq qiladi. Ko'pgina mutaxassislarning fikriga ko'ra, tartibsizliklar paytida, jamoat xavfsizligiga zarar etkaziladi. Guruh bezoriligida esa jamoat tartibi buziladi. Ammo bu belgilarni voqea joyini tekshirganda darhol aniqlash qiyin. Shu bois, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilgan barcha holatlar, vaziyat va hodisa joyini sinchiklab o'rganish zarur. Ommaviy tartibsizliklar paytida qurol, portlovchi qurilmalar, portlovchi moddalar ishlatilishi mumkin. Guruh bezoriligi ham qurol yoki qurol sifatida foydalanish mumkin bo'lgan ashyolar qurollar, portlovchi moddalar va portlovchi qurilmalar bilan ham sodir etilishi mumkin. Ommaviy tartibsizliklar ham guruh bezoriligi ham ko'pincha fuqarolarga nisbatan zo'ravonlik bilan bog'liq bo'lib, hokimiyat vakiliga qurolli qarshilik ko'rsatish bilan birga sodir etiladi. Bu holat esa mazkur jinoyatlarni bir-biridan farqlashda qiyinchiliklar tug'diradi.

Shuningdek, ommaviy tartibsizliklar jinoyatlarida ham bezorilik jinoyatida ham mazkur jinoyatlarni sodir etgan shaxslari soni bo'yicha aniq kriteriya mavjud emas. Bu esa o'z navbatida ommaviy tartibsizliklar hamda bezorilikni bir-biridan farqini anglashda yana bir muammoni keltirib chiqaradi.

Ushbu jinoyatlarning subyektlari bo'yicha ma'lum darajada farqlar mavjud. Ommaviy tartibsizliklarda passiv va ishtirokchi kabi nazariy tushunchalar bo'lgan holda, bezorilikda jinoiy xatti-harakatlarning faol va passiv ishtirokchilari bo'lishi mumkin emas. Guruhdagi bezorilikning barcha ishtirokchilari odatda ishtirokchilar sifatida e'tirof etiladi.

V.V.Borovikovaning fikriga ko'ra "ommaviy tartibsizliklar jinoyatining subyektlari oldindan til biriktirgan holda harakat qilishlari dargumon, odatda mazkur jinoyatni sodir etganlar tashkilotchilar tomonidan tegishli psixologik "qayta ishlash"dan so'ng to'satdan yuzaga kelgan qasd bilan harakat qiladilar". Biroq bizning fikrimizga ko'ra, ommaviy tartibsizliklarda ham oldindan kelishish kabi holatlar uchrab turishi mumkin. Chunki mazkur jinoyatlar faqatgina tashkilotchilar tomonidan ma'lum qasdni ko'zlab sodir etilmaydi. Bunda haqiqatdan ham olomon tomonidan ma'lum bir huquq yoki imtiyozlar talab etib, biroq qonunchilikni buzgan holda ham sodir etilishi mumkin.



Mazkur jinoyatlarning obyektiv tomonlarida ham ma'lum bir farqlar mavjud. Bezorilik jinoyati zo'rlik ishlatish bilan bog'liq bo'lib, tajovuz qilingan holda sodir etiladi. Ya'ni zo'rlik ishlatish bezorilik jinoyatining zaruriy belgisi hisoblanadi. Ommaviy tartibsizliklar jinoyati ham zo'rlik ishlatish bilan bo'g'liq holda sodir etilishi mumkin bo'lgan holda, zo'rlik mazkur jinoyatning zaruriy belgisi hisoblanmaydi. Aksincha, zo'rlik ishlatish ommaviy tartibsizliklar jinoyatining fakultativ belgisidir va jinoyatni kvalifikatsiya qilishda hisobga olinadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyidagilarni xulosa qilishimiz mumkin:

1. Bezorilik uchun jinoiy javobgarlik, shu jumladan bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilganda, shuningdek ommaviy tartibsizliklar uyushtirish va ularni sodir etishda ishtirok etish ijtimoiy jihatdan belgilanadi va ijtimoiy xavfli qilmishlarni jinoiy javobgarlikka tortishning barcha mezonlariga javob beradi.

2. Butun jahon tarixi, O'z. SSR, SSSR va O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligining rivojlanish tarixi bizga jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarga qarshi kurashishga qaratilgan jinoiy huquq normalarining uzluksizligi, ularni sinchkovlik bilan farqlash va adolatlilik tamoyili nuqtayi nazaridan rioya qilish zarurati haqida fikr yuritishga imkon beradi.

3. Bezorilik jinoyat formal tarkibli jinoyat hisoblanib Jinoyat Kodeksi 277-moddasi despozitsiyasida nazarda tutilgan harakatlar amalga oshirilgan paytdan boshlab tugallangan hisoblanadi. Bezorilik jinoyati obyektiv tomonning zaruriy belgisi jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik, urish-do'pposlash, badanga yengil shikast yetkazish yoki o'zganing mulkiga shikast yetkazish yoxud nobud qilish ancha zarar yetkazishda ifodalanadi. Qurol sifatida esa faqatgina "Qurol to'g'risida"gi qonunga muvofiq o'qotar qurol deb belgilangan predmetlar e'tirof etilishi mumkin.

4. Bezorilikning asosiy bevosita obyekti - jamoat tartibi (axloq va qonun bilan tartibga solinadigan umume'tirof etilgan xulq-atvor qoidalariga rioya qilish, fuqarolarning jamoat va shaxsiy daxlsizligi, jamiyatda barqarorlik holatini ta'minlash asosida shakllangan ijtimoiy munosabatlar tizimi, jamiyat, davlat institutlarining normal faoliyati, mehnat sharoitlari, har bir insonning hayoti va shaxsiy hayot daxlsizligi). Qo'shimcha to'g'ridan-to'g'ri obyektlar – qurollarga egalik qilishning huquqiy asoslari, transport xavfsizligini va konstitutsiyaviy tuzum asoslarini ta'minlaydigan boshqa ijtimoiy munosabatlar munosabatlar.

5. Bezorilik faqat to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. Jinoyatchining niyati nafaqat jamoat tartibini qo'pol ravishda buzish va jamiyatga nisbatan ochiq



POLAND



POLAND

hurmatsezlikni ifodalashda namoyon bo'ladi. Bunda qasd to'satdan paydo bo'lgan bo'lishi ham mumkin. Biroq mazkur belgi qonunchilikda zaruriy yoki fakultativ belgi sifatida belgilanmagan. Shu sababli ham mazkur holat faqatgin ajinoyatni kvalifikatsiya qilishda e'tiborga olinishi mumkin.

6. Hozirda mavjud jinoyat qonunchiligi jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik, urish-do'pposlash, badanga yengil shikast yetkazish yoki o'zganing mulkiga shikast yetkazish yoxud nobud qilish ancha zarar yetkazish, mazkur harakatlar badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazib; bir guruh shaxslar tomonidan; sovuq qurol yoki kishining sog'lig'i uchun amalda shikast yetkazishi mumkin bo'lgan narsalarni (qurol sifatida) namoyish qilib, ularni qo'llash bilan qo'rqitib yoxud qo'llab; o'z mazmuniga ko'ra umum e'tirof etgan axloq qoidalarini namoyishkorona mensimaslikda ifodalanuvchi o'taketgan behayolik bilan; yosh bola, qariya, nogironligi bo'lgan shaxs yoki ojiz ahvoldagi shaxslarni xo'rlab; ko'p miqdorda zarar yetkazib, birovning mulkini nobud qilish yoki unga shikast yetkazib; akroran yoki xavfli retsdivist tomonidan; o'qotar qurolni namoyish qilib, uni qo'llash bilan qo'rqitib yoki qo'llab; ommaviy tadbirlar o'tkazilayotgan vaqtda; jamoat tartibini saqlash vazifasini bajarib turgan hokimiyat vakili yoki jamoatchilik vakiliga yoxud bezorilik harakatlarining oldini olish chorasini ko'rgan boshqa fuqarolarga qarshilik ko'rsatib sodir etilganlik uchun javobgarlik belgilagan.

7. Mayda bezorilik, ya'ni jamoat joylarida uyatli so'zlar bilan so'kinish, fuqarolarga haqoratimiz shilqimlik qilish hamda jamoat tartibini va fuqarolarning osoyishtaligini buzuvchi shu kabi boshqa xatti-harakatlarda ifodalgan jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik tegishli tartibda MJTK 183-moddasida nazarda tutilgan huquqbuzarlik hisoblanib, mayda bezorilik bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan hollarda huquqbuzarlik Jinoyat Kodeksi 277-moddasi bilan emas, balki MJTK 183-moddasida nazarda tutilgan javobgarlikni keltirib chiqaradi.

8. Amaliyotda guruh bezoriligi asosan turli sport tadbirlari va musobaqalarida sodir etiladi. Bunda bezorilik tomoshabin va muxlislar tomonidan sodir etilishi bilan bir qatorda sportchilar tomonidan ham sodir etilishi mumkinligi hisobga olinishi lozim.

9. Jinoyat huquqi nazariyasidagi turli pozitsiyalarni hisobga olgan holda, ommaviy tartibsizliklar deganda ko'p sonli faol ishtirokchilar tomonidan qasddan sodir etilgan, fuqarolarga nisbatan zo'ravonlik, talon-taroj qilish, o't qo'yish, mulkni yo'q qilish, qurol-yarog', portlovchi qurilmalar, portlovchi, zaharli yoki boshqalar uchun xavf tug'diradigan, shuningdek hokimiyat vakiliga



qurolli qarshilik ko'rsatadigan boshqa moddalar va narsalar qo'llash orqali sodir etilgan harakatlar tushunilishi kerak, deb hisoblaymiz

10. Jamoat tartibi – xavfsizlik va fuqarolarning tinchligini, o'zgalar mulkini saqlashni, jamoat va davlat tashkilotlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning bir me'yorda ishlab turishini ta'minlashga yo'naltirilgan odamlar o'rtasidagi axloq va huquq normalariga asoslangan munosabatlar tartibi tushuniladi.

11. Ommaviy tartibsizliklar tugallanish vaqti o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ommaviy tartibsizliklar uyushtirilganda, hozir bo'lgan ishtirokchilar jamoaty joylarida tartibsizliklar uyishtirishga qat'iy qaror qilganda tugallangan deb hisoblanadi va mazkur holatda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 244-moddasi dispozitsiyasida ko'rsatilgan harakatlar ular amalga oshirilganligi muhim ahamiyatga ega emas.

12. Ommaviy tartibsizliklar jinoyatini sodir etishga qaratilgan rejalarni tuzish, olomon to'plashga harakat qilish ommaviy tartibsizliklar jinoyatini sodir qilishga suiqasd qilish sifatida e'tirof etilishi lozim.

13. Ommaviy tartibsizliklar jinoyatining tashkilotchisi oldindan o'ylangan harakatlar asosida to'g'ri qasd bilan harakat qiladi. Mazkur jinoyat ishtirokchisi ham to'g'ri qasb bilan harakat qiladi. Biroq bunda shuni e'tiborga olish kerakki, qasd nafaqat o'ylangan bo'lishi, balki u to'satdan ham vujudga kelishi mumkin. Bu qoida faqatgina ishtirokchiga nisbatan qo'llaniladi.

14. Ommaviy tartibsizliklar jinoyati va guruh bezoriligi ko'p jihatdan bir-biriga o'xshab ketsa-da ular o'rtasida farqlar yetarlicha. Jumladan:

Ommaviy tartibsizliklar va guruh bezoriligini farqlashda jinoyatlar obyektiga e'tibor qaratish lozim. Turli xil qarashlarini o'rganib shuni aytishimiz mumkinki, mazkur jinoyatning umumiy obyekti jamoat tartibi va jamoat xavfsizligi hisoblanadi. Jamoat tartibi va jamoat xavfsizligini farqi nimada, ular mazmunan bir ma'noni anglatmaydimi, degan savol tug'ilishi tabiiydir. Bizning fikrimizcha, jamoat xavfsizligiga tajovuz bo'lganda, jamiyatlardagi ijtimoiy munosabatlarga zarar yetadi yoki bunday zarar real xavfi vujudga keladi. Jamoat tartibi buzilganda esa, bu munosabatlar beqarorlashadi.

E'tibor qaratilishi lozim bo'lgan yana bir jihat ishtirokchilar soni hisoblanadi. Ya'ni ommaviy tartibsizliklarda – jamoat tartibi va jamoat xavfsizligiga daxl qiladigan ko'p sonli ishtirokchilar, aniqroq qilib aytganda, olomon effektini hosil qilishga yetarli bo'lgan ishtirokchilar haqida so'z boradi. Biroq ommaviy tartibsizliklarda faqatgina aktiv ishtirokchilar javobgarlikka tortiladi. Bezorilik jinoyatida esa nisbatan tor doiradagi ishtirokchilarga e'tibor



qaratiladi. Ya'ni guruh bezoriligi ishtirokchilarini olomon deb atab bo'lmaydi. Ularning barchasi jamoat tartibini qo'pol tarzda buzadi va jamiyatga nisbatan ochiq-oydin hurmatsizlik ko'rsatadi. Shuningdek, mazkur jinoyat ishtirokchilarini aktiv va passiv ishtirokchilikka bo'linmaydi.

Mazkur jinoyatlarning obyektiv tomonlarida ham ma'lum bir farqlar mavjud. Bezorilik jinoyati zo'rlik ishlatish bilan bog'liq bo'lib, tajovuz qilingan holda sodir etiladi. Ya'ni zo'lik ishlatish bezorilik jinoyatining zaruriy belgisi hisoblanadi. Ommaviy tartibsizliklar jinoyati ham zo'rlik ishlatish bilan bog'liq holda sodir etilishi mumkin bo'lgan holda, zo'rlik mazkur jinoyatning zaruriy belgisi hisoblanmaydi. Aksincha, zo'rlik ishlatish ommaviy tartibsizliklar jinoyatining fakultativ belgisidir va jinoyatni kvalifikatsiya qilishda hisobga olinadi;

Bir guruh shaxslar bezoriligi va ommaviy tartibsizliklar jinoyatlarini o'rtasidagi farqlarni belgilash va ularni kvalifikatsiya qilishdagi muammolarni bartaraf etish borasida quyidagi takliflarni kiritishimiz mumkin:

Ommaviy tartibsizliklar jinoyatlarini majburiy belgisi sifatida uning motivi ham belgilanishi lozim. Ya'ni ommaviy tartibsizliklar jinoyatida jinoyatni sodir etish motivi (siyosiy, mafkuraviy, irqiy, milliy yoki diniy adovat) muhim ahamiyat kasb etmaydi. Biroq amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ommaviy tartibsizliklar asosan, siyosiy, mafkuraviy, irqiy, milliy yoki diniy adovat negizida yuz beradi. Shu sababli mazkur belgilar tegishli norma dispozitsiyasida aks ettrilishi lozim;

Ommaviy tartibsizliklar qatnashchilarining talablari qonuniy bo'lsa, mazkur qilmish ommaviy tartibsizlik sifatida e'tirof etilmasligi lozim. Chunki ba'zan O'zbekiston sharoitida shunday hodisalar yuz beradiki, natijada oddiy odamlar o'zlarining huquqlarini amalga oshirish uchun tartibsizliklar uyishtirishdan boshqa chorasi qolmaydi. Shuning uchun tartibsizliklar ishtirokchilarining talablari qonuniy bo'lsa, qilmish jinoylikni istisno etish lozim;

Jamoat tartibi va jamoat xavfsizligi kabi tushunchalrni yuridik jihatdan asoslantirib, ularga kengroq tavsif berish lozim;

Oliy Sudning Plenum qarorlari orqali mazkur jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda ualrning sifat ko'rsatkichlari e'tiborga olinishi lozimligi tavsiya etilishi kerak;

Yana bir muhi taklif shundaki, ommaviy tartibsizliklar jinoyatining sodir etish uchun uning ishtirokchilar sonining minimal miqdorini belgilash lozim. Misol uchun xalqaro maydonda shunday amaliyotlar mavjud. Jumladan: Buyuk



POLAND



POLAND

Britaniyada 1986 yilda qabul qilingan va hozirda ham amalda bo'lgan, "Jamoat tartibini saqlash haqidagi Akt"ga muvofiq ommaviy tartibsizliklarda 12 yoki undan ko'p odam ishtirok etishi lozim; AQSHda ommaviylik belgisi olomon - qonuniy yoki noqonuniy maqsadga erishish maqsadida ommaviy tartibsizliklar yoki jamoat tinchligini buzuvchi boshqa harakatlar sodir etish maqsadida birga yig'ilgan uch yoki undan ortiq shaxslarga nisbatan beriladi. Shu sababli ham qonunchilikda ishtirokchilar sonining minimal miqdorini belgilash foydali bo'ladi deb hisoblaymiz;

Bezorilik jinoyatinni kvalifikatsiya qilishda transport bezoriligi uchun javobgarlik belgilash lozim. Ya'ni hozirgi davrda transport bezoriligi sodir etganlar uchun to'g'ridan to'g'ri javobgarlik mavjud emas. Mazkur qilmishni sodir etganlar tegishli tarzda JKning boshqa, bezorilik belgisini qamrab olmaydigan normalari bilan javobgarlikka tortilishi haqida ham batafsil tushuntiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Mazkur yangi tahrirdagi Konstitutsiya 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan. <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi (2022-yil 14-martgacha bo'lgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan). <https://lex.uz/docs/-111453?ONDATE2=14.03.2022&action=compare>
3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. <https://lex.uz/docs/111460>
4. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar. –T.: "Adolat", 1997. – B.56-65.
5. Очиллов Хасан Рашидович. Саволлар ва жавоблар. Жиноят ҳуқуқи (Умумий қисм). Тошкент 2009.

